

## ZULFIYA IJODINING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

**Rajapova Durdona Saparboevna**

*Urganch Innovatsion Universiteti Pedagogika va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi  
kafedrası katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari nomzodi*

**Saparboyeva Orzigul**

*Urganch Innovatsiyalar Universiteti "Boshlang‘ich Ta‘lim Metodikasi" fakulteti  
23-05- guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining zabardast vakili, xalq shoiri Zulfiya ijodining yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Zulfiya she‘riyatida Vatanga muhabbat, insonparvarlik, ona tabiatga ehtirom, ayolga hurmat va milliy qadriyatlarga sadoqat kabi g‘oyalarning yoshlar qalbida ezgulik va yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Shoiraning asarlari yosh avlodni ona yurtga sadoqatli, mehr-oqibatli, hayotga mehr bilan qaraydigan inson bo‘lib ulg‘ayishiga xizmat qilishi ilmiy asosda ochib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Zulfiyaning she‘riyati, adabiy merosi, o‘zbek she‘riyati, yosh avlod, tarbiya, Vatanga muhabbat, insonparvarlik, ayol obrazi, milliy qadriyatlar, adabiyot, she‘riyat, ma‘naviy tarbiya.*

**Abstract:** *This article analyzes the role and significance of the works of Zulfiya, a prominent figure in Uzbek literature and a People's Poet, in the upbringing of the younger generation. It highlights how ideas such as love for the Motherland, humanism, respect for nature, honor for women, and loyalty to national values in Zulfiya's poetry contribute to shaping noble qualities and high moral values in the hearts of young people. The article scientifically reveals how the poetess's works nurture the younger generation to grow up as patriotic, compassionate, and life-loving individuals.*

**Key words:** *Zulfiya's poetry, literary heritage, Uzbek poetry, younger generation, upbringing, love for the Motherland, humanism, image of a woman, national values, literature, poetry, spiritual upbringing.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется роль и значение творчества Зулфии — выдающегося представителя узбекской литературы, народной поэтессы, в воспитании подрастающего поколения. Особое внимание*

уделяется тому, как идеи любви к Родине, гуманизма, уважения к природе, почитания женщины и верности национальным ценностям в поэзии Зулфии способствуют формированию в сердцах молодежи благородных качеств и высоких нравственных ценностей. Научно обосновано, как произведения поэтессы помогают молодому поколению вырасти патриотами, добрыми и любящими жизнь людьми.

**Ключевые слова:** поэзия Зулфии, литературное наследие, узбекская поэзия, подрастающее поколение, воспитание, любовь к Родине, гуманизм, образ женщины, национальные ценности, литература, поэзия, духовное воспитание.

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni ma'naviy barkamol, milliy qadriyatlarimizga sadoqatli va insonparvar etib tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, har bir xalqning boy adabiy merosi va ma'naviy qadriyatlari kelajak avlod tarbiyasining mustahkam poydevorini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'zbek adabiyotining yirik vakili, xalq shoiri Zulfiya ijodi yoshlar tarbiyasida beqiyos ahamiyatga egadir. Zulfiya o'zining sarmazmun she'riyati orqali insonparvarlik, Vatanga sadoqat, ona tabiatga mehr va ayolga hurmat kabi insoniy fazilatlarni ulug'lagan, yoshlarning ongi va qalbiga ezgulik urug'ini qadagan ijodkor sifatida e'tirof etiladi [1].

Shoiraning asarlarida milliy qadriyatlar, xalqona ruh va zamonaviylik mujassam bo'lib, ular yosh avlod ma'naviy olamini boyitishda muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, Zulfiya she'riyatidagi ruhiy noziklik, tabiatga mehr va insonparvarlik g'oyalari yoshlarning estetik didi, ma'naviy dunyoqarashi va ijtimoiy faolligini shakllantirishda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi [2].

Zulfiya o'z she'riyatida yoshlarni Vatanga mehr, insonlarga e'tibor va tabiatga ehtirom ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Shoiraning she'rlarida inson va tabiat, ona va bola, ayol va jamiyat kabi mavzularni nozik ruhiy holatlar orqali ochib bergan. Masalan, uning "Bahor keldi seni so'roqlab..." she'rida tabiat uyg'onishi orqali hayot go'zalligi va mehr-oqibat g'oyasi kuylanadi [3].

Shoiraning Zulfiya ijodining xalq orasida keng e'tirof topishi bejiz emas. U bolaligidan atrof olamni o'zgacha nigoh bilan kuzatgan, boshqalar ilg'amagan jihatlarni sezib, ularni his eta olgan nozikta'b qiz bo'lib ulg'aygan. Shoiraning badiiy tafakkur va she'riyatga mehr qo'yishida oilaviy muhitning ham alohida ta'siri

bo‘lgan. Zulfiya bolalik xotiralarida otasining mehnatsevarligi va kuch-qudratiga, qo‘lida olovday chaqnagan temirga shakl berib, inson ehtiyoji uchun foydali buyum yasash mahoratiga hayrat bilan boqganini yodga oladi. U otasini o‘ziga ideal qilib olgan, biroq inson qalbini anglash va unga mehr ulashish temirga ishlov berishdan ham og‘ir ish ekanligini anglaganini ta’kidlaydi.

Shoiraning onasi esa kamso‘z, xayolchan, ammo g‘oyat dono ayol bo‘lib, cheksiz ertaklar, doston va qo‘shiqlarga boy xalq og‘zaki ijodining bilimdoni edi. Zulfiya onasining betakror afsona va hikoyatlaridan ilhom olib, so‘z sehrining qudratiga mahliyo bo‘lgan. Shoiraning hayotga, inson va tabiatga bo‘lgan beg‘ubor muhabbati, badiiy tafakkuri va she’riy didi mana shu mehrga to‘la oilaviy muhit va ma’naviy boy xotiralar zahirida shakllangan.

Zulfiya ijodining o‘ziga xosligi shundaki, uning she’rlari inson qalbining nozik tuyg‘ulari, hijron va sog‘inch iztiroblari, hayot va muhabbat borasidagi falsafiy qarashlar bilan sug‘orilgan. Ayniqsa, tinchlik, insoniy munosabatlar va tabiat go‘zalligi haqidagi she’rlari hech bir kitobxonni befarq qoldirmaydi. Shoiraning asarlari insoniy poklik, halollik va olijanob tuyg‘ularni madh etadi.

Shoiraning xalq orasida mashhurlikka erishgan “Oydinda”, “Sensiz”, “Yurak”, “Falak”, “Bahor keldi seni so‘roqlab”, “O‘g‘irlamang qalamim bir kun” kabi she’rlari, shuningdek, “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush”, “Mushoira” asarlari keng omma tomonidan sevib o‘qiladi. Zulfiya “Uni Farhod der edilar”, “Quyoshli qalam”, “Xotiram siniqlari” kabi lirik va liro-epik dostonlari bilan ham o‘z o‘rnini mustahkamladi. U shoir Hamid Olimjon bilan 1935-yilda turmush qurgan va uning bevaqt vafotidan so‘ng yurak iztirobi bilan yo‘g‘rilgan mahzun she’rlar yaratgan.

Shuningdek, Zulfiya A. Pushkin, M. Lermontov, N. Nekrasov, L. Ukrainka, V. Inber kabi mashhur shoirlarning asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Shoiraning tabiat va insoniyatga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbati, beg‘ubor insoniy tuyg‘ulari, yorqin poetik obrazlari va badiiy ifoda uslubi uni zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin siymosiga aylantirdi. Zulfiya she’riyatida tabiat och ranglar, yorqin timsollar va estetik tasvirlar vositasida badiiy gavdalantirilgan bo‘lib, u inson ruhiyatiga iliqlik, mehr va hayotga muhabbat bag‘ishlaydi.

Shoiraning Vatanga muhabbat, insonparvarlik va milliy qadriyatlarga sadoqat motivlari yosh avlodni vatanparvar va ma’naviy yetuk shaxs bo‘lib ulg‘ayishiga xizmat qiladi. Zulfiya asarlarida ona tabiat obrazi inson qalbidagi mehr-muhabbat va

poklik timsoli sifatida gavdalaniriladi. Bu esa yosh avlodni ona yurt va ona zaminni ardoqlash, atrof-muhitga ehtirom ruhida tarbiyalaydi [4].

Bundan tashqari, Zulfiya ijodida ayol obrazi, uning jamiyat va oiladagi o‘rni yuksak baholanadi. Shoira asarlarida ayol nafaqat ona va umr yo‘ldosh, balki jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi, ma’naviy yetuk inson sifatida tasvirlanadi. Bu kabi g‘oyalar yoshlarning jamiyatdagi ayol maqomini anglash va unga hurmat ruhida tarbiyalanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi [5]

Shoira Zulfiya ijodida o‘zbek ayoli obrazi alohida o‘rin tutadi. Uning mamlakat ijtimoiy hayotidagi faolligi va jamiyat taraqqiyotidagi ishtiroki shoiraning ko‘plab asarlarida o‘z ifodasini topgan. Zulfiya she’riyatida ayollik nafisligi, mehr va sadoqat, ona mehrining betakrorligi yuksak badiiy saviyada tasvirlanadi. Uning she’riy to‘plamlari inson va tabiat, ona Vatan va insonparvarlik kabi mavzularni go‘zal ranglar, yorqin timsollar va poetik obrazlar vositasida yoritadi.

Shoiraning lirikasi olijanoblik, jasorat, xalq g‘ururi va samimiy tuyg‘ular bilan boyitilgan bo‘lib, unda yangi poetik timsollar va nafis obrazlar o‘ziga xos ko‘klamiy kayfiyat baxsh etadi. Zulfiya she’riyatidagi har bir satr inson qalbiga poklik, mehr-muhabbat va ezgulikka intilish tuyg‘usini singdiradi. Ayniqsa, u o‘z asarlarida o‘zbek ayollari va qizlarining orzu-umidlari, baxti va hayot sinovlari haqida samimiyat bilan kuylaydi.

Shoiraning “Hulkar”, “Men tongni kuylayman”, “Yuragimga yaqin kishilar”, “Mening bahorim” kabi mashhur she’rlari ana shunday ruhda yaratilgan bo‘lib, ular bugun ham yosh avlod uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda. Zulfiya hayoti va ijodi esa kelajak avlod uchun sadoqat va vafo timsoli bo‘lib qolmoqda.

Demak, Zulfiya ijodida ifodalangan insonparvarlik, vatanparvarlik, ayolga hurmat va tabiatga mehr motivlari yosh avlod tarbiyasida beqiyos o‘rin tutadi. Uning asarlari yoshlarning ma’naviy kamoloti, ijtimoiy faolligi va estetik dunyoqarashini shakllantirishga katta hissa qo‘shadi. Shoiraning asarlari hozirgi kunda ham yoshlar uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda. Zulfiya o‘zbek adabiyotida betakror ovoz va uslub egasi sifatida qadrlanadi. Uning she’riyati o‘zining insonparvarlik ruhiyati, ona Vatanga, tabiatga, inson qalbiga bo‘lgan mehr-muhabbati bilan ajralib turadi. Shoiraning bolalik xotiralari, oilaviy tarbiyasi va ma’naviy muhit uning badiiy tafakkurida, lirik obraz va poetik ifoda vositalarida o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa,

otasi va onasining hayoti, ularning kasbu hunari va ma’naviy olami Zulfiya shaxsiyatining shakllanishida muhim o‘rin egallagan.

Shoiraning ijodida ayol obrazi, uning jamiyatdagi o‘rni, ruhiyati, orzu-umidlari va hayotga munosabati o‘ziga xos poetik timsollar orqali yuksak badiiy saviyada aks ettirilgan. Zulfiya asarlaridagi tinchlik, ezgulik, insoniy qadriyatlar targ‘iboti yosh avlod tarbiyasida g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shoiraning mashhur she‘rlari, lirik va liro-epik dostonlari insonni go‘zallik, mehr-oqibat, hayot va insoniyatni sevishga undaydi.

Bugungi kunda ham Zulfiya ijodi o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, yosh avlod uchun ma’naviy va estetik tarbiya vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Uning asarlari inson ruhiyatini tarbiyalash, ma’naviy kamolotga yetaklashda, ona Vatanga sadoqat, insonparvarlik, ona tabiatga mehr tuyg‘ularini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Shu bois Zulfiya ijodini o‘rganish va targ‘ib etish, uni yoshlar qalbiga singdirish bugungi ma’naviyat va ma’rifat jarayonida ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ortiqova M. Zulfiya she‘riyatining badiiy olami. — Toshkent: Fan, 2018. — B. 22-23.
2. Axmedova D. Zulfiya ijodining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. — B. 35.
3. Zulfiya. Tanlangan asarlar. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. — B. 41.
4. O‘ktamova S. O‘zbek she‘riyati va tarbiya masalalari. — Toshkent: Ilm Ziyo, 2019. — B. 65.
5. Qurbonova N. Ayol obrazi Zulfiya ijodida. — “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2021, №3. — B. 90.